O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

"KELISHILGAN"	"TASDIQLAYMAN"
O'zbekiston Respublikasi	Mirzo Ulug'bek nomidagi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi	O'zbekiston Milliy universiteti
	rektori A.R. Maraximov
_____ «5» 04.06 2019 yil	_____ «5» 04.06 2019 yil

IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH MEZONI

KIRISH IMTIHONLARIDA "GEOGRAFIYA" FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR (KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR

Toshkent - 2019

Dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv – uslubiy kengashining 2019 yil "___" _____dagi __ – sonli majlisida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Tuzuvchilar: Geografiya va tabiiy resurslar fakulteti dekani, dotsent Sh.M.Sharipov

Tabiiy geografiya kafedrasi mudiri, dotsent M.T.Mirakmalov

Tashqi taqrizchi: TDPU Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, dotsent N.R.Alimqulov

KIRISH

Tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografik bilimlar umumta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi darsliklarida yoritilgan.

Tabiiy geografik, ya'ni geografik qobiq va uning qismlarini, tabiatdagi turli hodisa va jarayonlarning mazmun-mohiyatini, jamiyatning hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi, turli ijtimoiy-iqtisodiy geografik voqea-hodisalar, qonuniyatlarning sabab va oqibatlarini bilish o'quvchi tafakkurini o'stirishda, dunyoqarashini belgilashda muhim ahamiyatga egadir.

Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu dastur bo'lajak mutaxassis-kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, geografiya fanlari turkumidagi alohida fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko'zda tutadi.

Bunda: abiturientlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish; geografiya fani bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadi qo'yiladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda zamonaviy tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya asoslarini o'zlashtirish, uning turli mavzularini o'rganish, tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni bilish, tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish vazifalari ko'zda tutilgan.

Abiturientning bilimiga qo'yiladigan talablar

"Geografiya" (ko'zi ojizlar uchun) kasbiy (ijodiy) imtihon dasturiga ko'ra, geografiya fanlarini o'zlashtirishga quyidagi talablar qo'yiladi:

Geografiya fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abiturient:

- tabiiy geografiyaning o'rganish ob'ekti, predmeti va vazifalarini;
- tabiiy geografiyaning termin va tushunchalari, tadqiqot metodlarini;
- geografik qobiq va uning qismlarini;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot ob'ekti va predmeti;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy termin va tushunchalarini bilishi kerak.

Geografiya fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abiturient:

- geografik qobiq va uning rivojlanishi qonuniyatlari;
- inson xo'jalik faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar;
- hududiy mehnat taqsimoti;
- O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni va uning xo'jalik rivojlanishiga ta'siri;
- iqtisodiy rayonlarning xo'jalik rivojlanishi xususiyatlari;
- jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Fanning mazmuni

Tabiiy geografiya

Tabiiy geografiyaning o‘rganish ob’yekti, predmeti va vazifalari. Uning xalq xo‘jaligidagi o‘rni, amaliy ahamiyati. Fanning rivojlanish tarixi, Er yuzining kashf etilishi va o‘rganilish tarixi.

Quyosh sistemasi va Yer.

Erning Quyosh sistemasidagi o‘rni. Yerning shakli, harakatlari, ularning geografik oqibatlari.

Geografik koordinatalar. Xarita

Daraja to‘ri, geografik koordinatlar. Joy plani va geografik xaritalar. Azimut. Masshtab. Joyning topografik planini tuzish. Geografik xarita.

Litosfera.

Erning ichki tuzilishi. Yerning tosh qobig‘i - litosfera, Er po‘sti. Er yuzi relefini hosil qiluvchi ichki va tashqi jarayonlar.

Atmosfera.

Havo qobig‘ining tarkibi, tuzilishi. Yerning radiatsiya balansi. Albedo. Havo harorati. Havo bosimi va shamollar. Ob-havo va iqlim. Iqlim mintaqalari, o‘lkalari. Havo massalari.

Gidrosfera.

Gidrosferaning tarkibiy qismlari. Dunyo okeani. Quruqlikdagi suvlar. Daryolar, ko‘llar va muzliklar. Yer osti suvlari.

Biosfera.

Biosfera, uning tarkibi. Tabiatdagi o‘rni. Biosferaga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar. Organizmlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar. Biosferaga inson ta’siri.

Geografik qobiq.

Umumiy xususiyatlari, chegaralari. Gorizontal va vertikal tabaqalanishi. Tabiat komplekslari. Tabiat zonalari. Umumiy geografik qonuniyatlar. Yer yuzini tabiiy geografik rayonlashtirish.

Inson xo‘jalik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar. Erozion jarayonlar. Gravitatsion jarayonlar. Tuproqni sho‘r bosishi, qatqaloq hosil bo‘lishi, botqoqlanish jarayonlari.

Yer yuzi aholisi va irqlar.

Yer yuzi aholisining joylashuvida tabiiy sharoitning ahamiyati. Irqlar. Ularning tashqi belgilari. Aholi bilan bog‘liq bo‘lgan global muammolar.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning tadqiqot ob’ekti va predmeti, maqsad va vazifalari. Uning fanlar tizimida tutgan o‘rni va amaliy ahamiyati. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning shakllanishi va rivojlanish xususiyatlari.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy termin va tushunchalari

Hududiy mehnat taqsimoti. Ixtisoslashuv. Iqtisodiy rayonlar. Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Iqtisodiy geografik o‘rin.

O‘zbekiston Respublikasining geografik o‘rni va uning xo‘jalik rivojlanishiga ta’siri.

O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari. Ularning milliy iqtisodiyotni shakllanishi va rivojlanishidagi roli.

O‘zbekiston Respublikasi aholisi.

Aholi soni, tadrijiy o‘zgarishlari va joylanishi. Axolining tarkibi va takror barpo bo‘lishi.Mehnat resurslari.

O‘zbekiston iqtisodiyotining tarmoqlar tuzilishi.

Tarmoqlararo majmualar. Yoqilg‘i-energetika, metallurgiya, kimyo, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, qurilish materiallari, o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash, engil va oziq-ovqat sanoati.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi.

Dexqonchilik va chorvachilikni xududiy tashkil etilishi va rivojlanishi.

Transport va uning turlari. Aholiga xizmat ko‘rsatish soxalari geografiyasi.

O‘zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish.

Iqtisodiy rayonlarning xo‘jalik rivojlanishi xususiyatlari.Toshkent iqtisodiy rayoni. Mirzacho‘l iqtisodiy rayoni. Farg‘ona iqtisodiy rayoni. Samarqand iqtisodiy rayoni. Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayoni. Qashqadaryo iqtisodiy rayoni. Surxondaryo iqtisodiy rayoni. Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari.

Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi.

Jahon mamlakatlarining tabiiy sharoiti va resurslari. Jahon aholisi va uning joylanishi.

Jahon xo‘jaligining shakllanishi va rivojlanishi xususiyatlari. Tarmoqlar tarkibi. Jahon sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti.

Jahon mamlakatlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi. Global muammolar.

Dunyo siyosiy xaritasining shakllanishi va rivojlanishi. Mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘ra turlari. Mintaqalar va mamlakatlarning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o‘rni va roli. Dunyo siyosiy xaritasida Markaziy Osiyo davlatlari va O‘zbekistonning tutgan o‘rni.

Geografiya fanidan ko‘zi ojizlar uchun OO‘YUga kirish imtihoni savolnomasi

1. Tabiiy geografiyaning o‘rganish ob’yekti, predmeti va vazifalari.
2. Tabiiy geografiyaning ahamiyati.
3. Yerning Quyosh sistemasida tutgan o‘rni.
4. Yerning o‘z o‘qi atrofida aylanishi va uning oqibatlari.
5. Yerning Quyosh atrofida aylanishi va uning oqibatlari.
6. Yo‘nalish azimuti va masofani aniqlash.
7. Masshtab va uni aniqlash.
8. Geografik xaritalar va ularning turlari.
9. Yerning ichki tuzilishi.
10. Yer po‘sti va uning harakatlari.
11. Yer yuzasi relefining asosiy shakllari.
12. Gidrosferaning tarkibiy qismlari.

13. Dunyo okeani va uning qismlari.
14. Okean suvining xususiyatlari.
15. Daryolar, daryo sistemasi.
16. Ko‘llar va ularning turlari.
17. Atmosferaning tuzilishi va tarkibi.
18. Havo massalari va frontlari.
19. Shamollar.
20. Havoning namligi, nisbiy namlik va yog‘inlar.
21. Ob-havo va iqlim.
22. Iqlim mintataqalari va tiplari.
23. Biosfera.
24. Tabiatda organizmlarning tarqalishi.
25. Tabiat komponentlari va komplekslari.
26. Geografik qobiq va uning tuzilishi.
27. Umumiy geografik qonuniyatlar.
28. Tabiat zonalari.
29. Yer yuzini tabiiy geografik rayonlashtirish.
30. Inson xo‘jalik faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi tabiiy geografik jarayonlar.
31. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya nimani o‘rganadi.
32. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o‘rni va aloqalari.
33. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning amaliy ahamiyati.
34. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy termin va tushunchalari.
35. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning zamonaviy tuzilishi.
36. Hududiy mehnat taqsimoti.
37. Ixtisoslashuv tushunchasi.
38. Iqtisodiy rayon va xududiy ishlab chiqarish majmualari.
39. Iqtisodiy geografik o‘rin tushunchasi.
40. O‘zbekistonning ma’muriy-xududiy bo‘linishi.
41. Tabiiy sharoit va resurslarning xo‘jalikni rivojlanishiga ta’siri.
42. O‘zbekiston aholisi va uning joylashuvi.
43. O‘zbekiston shahar va qishloq aholisi.
44. O‘zbekiston shaharlari.
45. O‘zbekiston sanoatini hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi.
46. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini hududiy tashkil etilishi va rivojlanishi.
47. Markaziy Osiyo davlatlarining dunyo siyosiy xaritasida tutgan o‘rni.
48. O‘zbekistonning dunyo siyosiy xaritasida tutgan o‘rni.
49. Dunyo siyosiy xaritasining mazmuni va shakllanishi.
50. Jahon mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko‘ra tiplari.
51. Jahon xo‘jaligining tarmoqlar tuzilishi.
52. Jahon transporti.
53. Jahon qishloq xo‘jaligi.
54. Jahon sanoati.
55. O‘zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish.

56. Iqtisodiy rayonlarning xo‘jalik rivojlanishi xususiyatlari.
57. O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari.
58. O‘zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslari.
59. O‘zbekiston mineral xom ashyo resurslari.
60. O‘zbekiston paxtachiligi.

IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH MEZONI

Ko’zi ojizlar uchun ijodiy imtihon besh balli baholash tizimi bo‘yicha baholanadi. Ko‘zi ojizlar uchun kirish imtihonlari og‘zaki tarzda o‘tkaziladi va har bir imtihon biletiga ikkitadan nazariy savol kiritiladi. Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abiturientning javobi 5 (“a’lo”)ga baholanishi uchun:

mavzuning mohiyatini to‘g‘ri anglagan bo‘lishi, ijodiy mulohazalar asosida yoritishi;

mavzuni mustaqil fikr asosida bayon qilishi;

fakt va misollardan o‘rinli foydalanib, to‘g‘ri xulosalar chiqara olishi;

mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi;

talab darajasidagi tabiiy va iqtisodiy geografik bilimlarga ega bo‘lishi;

nutqi ravon bo‘lib, fikrini to‘liq ifodalay bilishi zarur.

2. Abiturientning javobi 4(“yaxshi”)ga baholanishi uchun:

mavzu mohiyatini atroflicha, ijodiy yondashuv asosida yoritishi;

mustaqil fikrlashga intilishi;

fikrlarini izchil ifodalash qobiliyatiga ega bo‘lishi;

nutqida mantiqiylik, ravonlik ko‘zga tashlanib turishi;

manbalardan, fakt va misollardan o‘rinli foydalana olishi;

geografik savodxonligi etarli bo‘lishi;

fikrini to‘g‘ri, maqsadga muvofiq ifodalay bilishi lozim.

3. Abiturientning javobi 3 (“qoniqarli”)ga baholanishi uchun:

mavzu mohiyatini chuqurroq ochib berishi;

geografik jarayonlar haqidagi tasavvuri qoniqarli darajada bo‘lishi;

geografik voqea-hodisalarni idrok eta bilishi, fikrni izchil ifodalashga intilishi;

fikr bayoni va uslubi ravon, mantiqiy bo‘lishi;

fakt va misollardan to‘g‘ri foydalanib, to‘g‘ri xulosalar chiqara olishi;

fikrini to‘g‘ri ifodalashga intilishi kerak.

4. Abiturientning javobi quyidagi hollarda 2 (“qoniqarsiz”)ga baholanadi:

mavzu mohiyatini etarli darajada ochib berolmasa;

tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy geografiya haqida muayyan tasavvurga ega bo‘lmasa;

fikrni ifodalashda g‘alizlik uchrashi;

abiturientning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki bo‘lsa;

fikrlash doirasi tor bo‘lsa;

fikr bayoni izchil bo‘lmasa;

nutqida ravonlik, mantiqiy muvofiqlik kuzatilmasa.

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2019-2020 o‘quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Imtihon komissiyasi tarkibi, odatda, uch nafar a’zodan kam bo‘lmagan holda tashkil etiladi.

Ijodiy imtihon natijalari o‘tkazilgan kundan kechiktirilmagan holda e’lon qilinadi. Imtihon natijalaridan norozi abiturientlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha apellyasiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyasiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Apellyasiya komissiyasi ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi bilan bir paytda 2019-2020 o‘quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Abiturient ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e’lon qilingan kundan boshlab 24 soat ichida appelyasiya komissiyasiga murojaat etishi mumkin. Aks holda, ko‘rsatilgan muddatdan keyin qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Abiturient tomonidan bildirilgan murojaat ko‘rib chiqiladi va 24 soat ichida xulosalar ma’lum qilinadi.

Qabul komissiyasi mas’ul kotibi **G. Eshonqulov**